

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)**



**PEDAGOGIKA
PEDAGOGY**

**ZOOLOGIYA FANIDAN AXBOROT - TA’LIM RESURSLARI VOSITASI
ASOSIDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH**

*Xalimova Moxigul Rustamovna
Qo‘qon DPI Biologiya kafedrasi dosent v.b.*

Annotatsiya Mazkur maqolada biologiya ta’lim yo‘nalishida zoologiyadan mustaqil ta’lim jarayonida axborot – ta’limiy resurs vositalaridan foydalanish orqali talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirish masalalari yoritib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Individual ishlarini tashkil etilishi, reproduktiv, ijodiy izlanish, nostandard testlar, mavzuli portfoliolar tuzish, keys-topshiriqlarini bajarish, didaktik topshiriqlar to‘plami, shajarali klaster v.b.

**ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПО
ЗООЛОГИИ НА ОСНОВЕ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
РЕСУРСОВ**

Аннотация В данной статье освещаются вопросы развития творческой активности студентов посредством использования информационно-образовательных ресурсных средств в процессе самостоятельного обучения по зоологии в области биологического образования.

Ключевые слова: Организация индивидуальной работы, репродуктивный, творческих исследований, нестандартные тесты, создание тематических портфолио, выполнение кейс-заданий, комплекс дидактических заданий, кластеры генеалогического дерева и т.д.

**INFORMATION ON ZOOLOGY - ORGANIZING INDEPENDENT
EDUCATION BASED ON EDUCATIONAL RESOURCES**

Abstract This article highlights the issues of developing students' creative activity through the use of information-educational resource tools in the course of independent education from zoology in the field of biology education.

Key words: Organization of individual work, reproductive, creative research, non-standard tests, creating thematic portfolios, completing case assignments, a set of didactic assignments, family tree cluster, etc.

Kirish

Mamlakatimizning oliy ta’lim muassasalarida keng qamrovli islohotlarning amalga oshirilishi, moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlanishi hamda yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanishi natijasida, biologiya fanlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. SHu bilan birga, axborot ta’lim muhitida talabalarning mustaqil fikrlash, mushohada yuritish, elektron ta’lim resurslari bilan ishlash malaka va ko‘nikmasini shakllantiruvchi axborot – resurslar vositasini ishlab chiqish zaruriyati kuzatilmogda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «uzluksiz ta’lim tizimi tarkibiga kiruvchi oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish, informatika, matematika kabi muhim va talabi yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish» ustuvor vazifalar belgilangan [1]. Bu borada ta’lim tizimini yangi, muayyan ta’riflarga binoan ma’nolashtirilgan muhitini takomillashtirish, talabalar faolligini oshirishga yo‘naltirilgan elektron resurslar va ulardan foydalanishning metodik tuzilmasini yaxshilash muhim axamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Oliy ta’lim muassasalarida dasturlashtirilgan ta’lim vositalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari, axborotlashtirish nazariyasi, metodikasi va amaliyoti bo‘yicha salmoqli natijalar J.A.Xamidov, O.X.To‘raqulov, M.M.Aripov, S.S.G‘ulomov, N.I.Taylaqov, U.YU.YUldashev, D.N.Mamatov15, S.Q.Tursunov, F.H.G‘afforov, S.J.To‘raev, S.I.Arhangelskiy, YU.K.Babanskiy, V.P.Bespalko, B.S.Gershunskiy, S.YA.Batishev, I.YA.Lerner, N.F.Talizina, A.A.Karabanov, B.L.Batashov, M.I.Belyaev, D.YU.Burenkova, P.D.Volkov va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini axborot – ta’limiy resurs vositlari yordamida kreativ faoliyatga tayyorlash, kasbiy tayyorlash, milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni ongli va mustaqil kasb-hunar tanlashi uchun shart sharoit yaratish kasb-hunar yo‘naltirish ishlarining samaradorligining ta’sirchan vositalari va usullarini tatbiq etishga hamda tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bilan bog‘liq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo‘yicha pedagog kadrlarni tayyorlash bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi [2]. Pedagog olim O‘.Q.Tolipov tadqiqot ishlari jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarida kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogik va AKT mezonlari ishlab chiqilgan [3]. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasini axborot - ta’limiy resurslari vositasida shakllantirish imkoniyatlari S.S. Babadjonov yoritib o‘tilgan [4].

Zoologiya darslarida o‘qituvchi vaqtadan unumli foydalanish hamda talabalarni o‘quv bilish faoliyatini rivojlantirishda axborot – resurs vositalaridan foydalanishi turli - tuman materialni namoyish qilishda qulay vaziyat yaratadi. Axborot – resurs vositalaridagi o‘quv material mavzulari ko‘zatmalilik tamoyili asosida tayyorlanadi, bu esa talabalarda keng qamrovli tushunchani shakllantirish bilan birga kreativ faollikni yuzaga keltiradi. Zoologiyani o‘qitishda qo‘llaniladigan innovasion va AKTlar o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quv jarayonini

samaradorligini oshirish bilan birgalikda o‘qitishning faol uslublarini qo‘llashga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Talabalarni kreativ faoliyatini rivojlantirish maqsadida faol metodlardan foydalanish kutilgan natijaga erishishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Zoologiya fanidan axborot - ta’lim resurslari vositasi asosida mustaqil ta’limni bajarish uchun ishlab chiqilgan metodologiya bizga uchta ketma-ket va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bosqichlarni belgilash imkonini beradi:

1. Maqsadga muvofiqlik bosqichi talabalarni kelgusi faoliyatda umumiylashtirishga qaratilgan. Uning mohiyati shundaki, talabalar topshiriqlarning mazmuni va maqsadini tushunadilar, ularni amalga oshirishning eng mumkin bo‘lgan variantlarini aniqlaydilar.

2. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish bosqichi - olingan bilim va ko‘nikmalar aniq ishlarni bajarish jarayonida o‘zining haqiqiy timsolini topadi. Talabalar o‘qitishning asosiy usullari bilan tanishadigan birinchi bosqichdan farqli o‘laroq, o‘quv-ijodiy bosqich ularni o‘z oldiga qo‘ylgan vazifalarni amalga oshirish yo‘llarini izlashni tashkil etadi.

3. Konstruktiv bosqichi – o‘quv jarayonini ijodiy bosqichda rivojlangan ko‘nikmalarni umumlashtirish, talabalarning o‘z-o‘zini rag‘batlantirish harakatlarini oldingi bosqichga teng darajada va yuqori darajada amalga oshirish, vazifalarni hal qilishda ijodiy yondashuvning namoyon bo‘lishidir. Bu amaliy faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan va aniq muammolarni hal qilishga, oqilona fikrlash mahoratidan foydalangan holda real ob’ektlarni yaratishga qaratilgan jarayondir.

Tahlillar va natijalar

Talabalarni fanga oid nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirilishi o‘quv rejada berilgan mustaqil ta’lim soatlarini bajarilishida amalga oshirib boriladi. Zoologiyadan mustaqil o‘quv jarayonining ajralmas va majburiy qismidir, bu talabalar faoliyatining bir turi bo‘lib, o‘quv jarayoni bilan belgilanadi.

Talabalar mustaqil ishlarining darajasi va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e’tiborga olinishi lozimligini kursatdi.

1. Axborot – resursi vositasida o‘quv materialni o‘zlashtirishning reproduktiv, ijodiy izlanish va tadqiqot mazmundagi darajalarda amalga oshiriladi: reproduktiv daraja – talabalar zoologiya darslarida o‘rganilgan o‘quv materialini mustahkamlash va tasniflash ishlarini amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi;

ijodiy izlanish xarakteridagi daraja – talabalar ushbu darajada zoologiyadan hayvonlarni tashqi va ichki tuzilishi yuzasidan morfologik, anatomik va fiziologik bilimlarni mustaqil ta’lim jarayonida mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mazkur imkoniyat talabalarni laboratoriya o‘quv xonalaridagi preparatlar, turli xil qushlarning tulumlari, hayvonlarning ilyustrasision mulyajlari ustida mustaqil o‘rganish va ijodiy izlanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar;

tadqiqot xarakteridagi daraja – zoologiyadan hajmi katta va mazmunan tadqiqot xarakteridagi mavzular mustaqil ta’limda topshiriq sifatida berilishi talabalarni o‘quv materialini

mustaqil o‘rganishi, ularda kreativ yondashuvga asoslangan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari ko‘zda tutiladi.

2. Zoologiya fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlarni bajarishda axborot – resurslari vositasi bilan ta’minlanganlik darajasi: multimedia dasturi asosida tayyorlangan laboratoriya ishlanmalari; elektron darslik, o‘quv qo‘llanma, tematik elektron to‘plamlar; ilyutrasion modellar, sxemalar, ijodiy o‘yinlar, elektron krasvord va keys-stadi.

3. Talabalarning axborot – ta’limiy resursi vositasi bilan ishlay olish darajasi: zoologiyani o‘qitishda axborot ta’lim texnologiyalarini keng joriy qilish; talabalarda axborot ta’lim madaniyatini shakllantirish; biologiya o‘qituvchilarni dars jarayonini elektron vositalar asosida tashkil etish va o‘tkazishga tayyorlashdan iboratdir.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, zoologiya fanidan axborot - ta’lim resurslari vositasi asosida mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini tarkib toptirishning metodik tizimini takomillashtirishga oid samarali metod va vositalar aniqlandi. Talabalarda mustaqil ta’lim olish imkonini beruvchi elektron resurs vositalardan foydalanib, o‘quv topshiriqlar va ularni nazorat qilish usullari aniqlandi. Kreativ faoliyatni takomillashtirishda axborot-ta’limiy resurs vositalaridan foydalanishning o‘z iga xos afzalliklari mavjud bo‘lib, biologiya darsining turli bosqichlarida axborot – ta’limiy resurs vositalarini qo‘llashning pedagogik imkoniyatlari va kreativ faoliyatni tarkib toptirishning didaktik asoslari aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to’plami. –T., 2017. –B.39.
2. Jo‘raev A. R. Dasturlashtirilgan ta’lim vositalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish. P.f.f.doktori dissertasiysi.-2019y, -143b.
3. Tolipov O‘. Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Ped.fan. dokt. diss. - T.: 2004. - 314 b.
4. Бабаходжаева Л.Г. Педагогическая базовая проектная личностно ориентированная интеллектуальная система образования. Наука. Ташкент – 2011. С. 196